




## TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-noyabr)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi.

2020-yil yanvar-noyabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 4126,6 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 149,3 mln. AQSh dollariga yoki 3,5 % ga kamaydi.


Pandemiya davrida mamlakatimizda ko‘pchilik faoliyat sohalari to‘xtab qolganligi inobatga olinib, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda. Xususan, davlat soliqlarining ma’lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo‘lib to‘lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o‘shishiga xizmat qiladi.






TSAda eksport hajmi 1598,3 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati – 97,9 %) va import hajmi 2528,3 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati – 95,6 %) yetdi. Hisobot davrida 930,1 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

## TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)



## TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2019-yil yanvar-noyabr nisbatan, %da)





## TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2020-yil yanvar-noyabr mln. AQSh dollari)


Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, % da
Rossiya	937,9	236,6	701,3	22,7
Xitoy	709,1	238,9	470,2	17,2
Qozog'iston	691,0	183,5	507,5	16,7
Turkiya	593,4	496,9	96,5	14,4
Koreya Respublikasi	184,8	9,5	175,3	4,5
Afg'oniston	105,0	105,0	0,0	2,5
Tojikiston	76,3	51,8	24,5	1,8
Qirg'iziston	70,3	45,2	25,1	1,7
Germaniya	68,9	2,0	66,8	1,7
B.A.A	67,6	67,0	0,7	1,6
Ukraina	57,2	31,7	25,4	1,4
Latviya	51,5	0,2	51,3	1,2
Litva	44,3	0,3	43,9	1,1
Italiya	38,1	3,4	34,7	0,9
Belarus	35,5	11,8	23,7	0,9
Niderlandiya	28,9	16,9	12,0	0,7
Irlandiya	26,4	0,0	26,4	0,6
Braziliya	23,2	0,0	23,2	0,6
Ozarbajon	22,8	10,2	12,6	0,6
Malayziya	21,9	5,9	16,0	0,5



Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020-yilning yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 46,3 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi 2019 yilning shu davriga nisbatan 104,8 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida 57,3 %ni, 2020-yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 53,7 %ni tashkil qilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,7 % ga kamaydi.

## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2020-yil yanvar-noyabr, % hisobida)








## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2020 yil yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Rossiya, Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Ukraina bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo‘shni davlatlardan tashqari) esa Xitoy, Birlashgan Arab Amirliklari va Afg‘oniston bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko‘rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Qozog‘iston va Turkiya davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.






## TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2020-yil yanvar-noyabr)

Xalqaro integratsiyaning kamayishi hamda davlatlar o'rtasidagi chegaralarda taqiq davom etayotganligi sababli mamlakat eksportining barqaror o'sishiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatib, eksport salohiyatining pasayishiga olib kelmoqda. Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo'llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko'mak berilmoqda. 2020-yil yanvar-noyabr oylari yakuni bilan 1598,3 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2019-yilning shu davriga nisbatan 94,7 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,4 % ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (67,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (15,9 %), turli xil tayyor buyumlar (6,5 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (4,4 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (2,7 %) shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (1,9 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.





## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-noyabr)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	1598,2	588,05	1010,20	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	205,97	177,20	77,41	12,9	30,1	7,7
Ichimliklar va tamaki	1,69	1,53	0,25	0,1	0,3	0,0
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	66,51	32,13	38,07	4,2	5,5	3,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2,59	0,18	2,41	0,2	0,0	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	39,64	32,56	9,89	2,5	5,5	1,0
Sanoat tovarlari	972,38	224,38	856,90	60,8	38,2	84,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	26,69	17,15	13,39	1,7	2,9	1,3
Turli xil tayyor buyumlar	96,01	101,76	2,87	6,0	17,3	0,3
Xizmatlar	8,76	1,17	9,01	0,5	0,2	0,9





## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR‘ATLARI (2020-yil yanvar-noyabr)

2020-yilning yanvar-noyabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o‘zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta’kidlash joizki, 2019-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar hamda turli xil tayyor buyumlarda o‘shish kuzatildi.

Tarkibi	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	97,9	108,2	92,8
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	132,1	148,5	211,8
Ichimliklar va tamaki	53,2	51,4	135,8
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	36,2	61,1	29,1
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	5947,7	402,4	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	147,3	172,4	123,1
Sanoat tovarlari	85,8	87,2	97,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	64,2	92,3	58,2
Turli xil tayyor buyumlar	128,9	143,4	81,0
Xizmatlar	67,7	43,4	87,8






**VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARNING ULUSHI  
(2020-yil yanvar-noyabr)**

Asosiy hamkor  
davlatlar

Ulushi 86,3 %

Boshqa hamkor  
davlatlar

Ulushi 13,7 %





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 203,8 mln. dollar qiymat ega 339,8 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2019-yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 69,6 % o'sgan, naturada – 2,2 martaga o'sgan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 81,5 mln. AQSh dollariga teng 167,9 ming tonna dan ortiq sabzavot (qiymatda 76,5 % ga o'sgan), shuningdek 67,3 mln. AQSh dollari qiymatidagi 93,4 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda 55,8 % ga o'sgan).

### 2020-yil yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari

				
Meva va rezavorlar	Uzum	Qovun va tarvuzlar	Yeryong'oqlar	Sabzavotlar
93,4 ming tonna	56,7 ming tonna	20,6 ming tonna	0,8 ming tonna	167,9 ming tonna
67,3 mln. AQSH dollari	48,6 mln. AQSH dollari	5,3 mln. AQSH dollari	0,8 mln. AQSH dollari	81,5 mln. AQSH dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2020-yilning yanvar-noyabr oylarida meva-sabzavotlarning eksport hajmi




148,8 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 9,3 % ni tashkil qiladi.

## TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-noyabr)

Mamlakatimizda faoliyati yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-noyabr oylari mobaynida import hajmi 2528,3 mln. AQSh dollari (2019-yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 95,6 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (31,3 %), sanoat tovarlari (18,8 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (14,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (13,1 %) hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (7,6 %) hisobiga to'g'ri keldi.





## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-noyabr)

Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	2260,20	1163,98	1096,22	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	297,87	263,82	68,40	11,8	19,9	5,7
Ichimliklar va tamaki	4,01	3,88	0,44	0,2	0,3	0,0
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	323,53	331,67	36,45	12,8	25,1	3,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	84,31	93,43	1,49	3,3	7,1	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	63,54	55,49	15,90	2,5	4,2	1,3
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	168,33	53,84	137,31	6,7	4,1	11,4
Sanoat tovarlari	424,28	310,64	163,63	16,8	23,5	13,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	715,62	161,76	629,82	28,3	12,2	52,3
Turli xil tayyor buyumlar	115,11	24,46	109,97	4,6	1,8	9,1
Boshqa turdagi tovarlar	25,29	12,90	12,39	1,0	1,0	1,0
Xizmatlar	38,31	11,99	28,64	1,5	0,9	2,4

Importning eng katta ulushi, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (25,1 %), sanoat tovarlari (23,5 %), MDH mamlakatlariga to‘g‘ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (52,3 %) va sanoat tovarlari (13,6 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.





## MDH VA BOSHQA XORJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2020-yil yanvar-noyabr, % hisobida)

Tarkibi	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	95,6	103,3	88,4
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	83,2	132,1	43,2
Ichimliklar va tamaki	151,3	177,5	95,7
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	64,5	72,9	77,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	304,2	357,3	94,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	94,4	111,0	92,1
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	95,8	104,2	110,7
Sanoat tovarlari	81,6	87,8	98,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	85,8	151,0	86,7
Turli xil tayyor buyumlar	110,5	121,4	130,9
Boshqa turdagi tovarlar	161,2	336,0	104,6
Xizmatlar	104,1	102,3	114,3






**VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARNING ULUSHI**  
(2020-yil yanvar-noyabr)

Asosiy hamkor davlatlar

Boshqa hamkor davlatlar

Ulushi 81,4 %

Ulushi 18,6 %





## TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Rossiya, Qozog'iston, Xitoy, Koreya Respublikasi, Turkiya, Germaniya va Latviya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 2068,9 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 81,8 % ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi  
Tel.:(71) 202-86-59**